

O‘ZBEK TILIDA OZIQ-OVQAT O‘ZLASHMALARINING GENETIK MANBALARI HAQIDA

Rushana Jamol qizi NABIYEVA

Tayanch doktorant

Qarshi davlat universiteti

Qarshi, O‘zbekiston

e-mail: rushana.nabiyeva@internet.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada oziq-ovqat nomlari o‘zlashmalarini tashkil etuvchi leksik-semantik to‘dalardagi o‘zlashma qatlam birliklari miqdorini belgilash va genetik tahlil qilish haqida fikr bildirilgan. Asosiy maqsad sifatida oziq-ovqat o‘zlashmalarining tarixiy rivojlanishi va taraqqiy etishi genetik tadqiq etilgan, ular kelib chiqqan manbalar, tillar aniqlangan.

Tayanch so‘zlar: o‘zlashma oziq-ovqat nomlari, pazandachilik leksikasi, snek (gazak) nomlari, tavsifiy oziq-ovqat nomlari, tezpishar (fast-fud) taom nomlari.

О ГЕНЕТИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ ПИЩЕВЫХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Рушана Жамол қизи НАБИЕВА

Базовый докторант

Каршинский государственный университет

Карши, Узбекистан

e-mail: rushana.nabiyeva@internet.ru

Аннотация

В данной статье излагается мнение об определении количества заимствованных слов в лексико-семантических группах, составляющих наборы названий продуктов питания и о генетическом анализе. Одной из основных целей статьи является генетическое исследование исторического развития и прогресса заимствования названий пищевых продуктов и выявление их исходных языков.

Ключевые слова: названия продуктов питания, кулинарная лексика, названия закусок, описательные названия продуктов питания, названия фаст-фудов.

Leksik sathga boshqa tillardan so‘z qabul qilish ijtimoiy-tarixiy jarayonlarga bog‘liq holda, shuningdek, davr ehtiyojlari zarurati bilan bog‘liq bo‘ladi. Tarixan olib qaraganda ham, turli davrlarda o‘zlashmalarning tildagi nisbati farqli bo‘lgan. Hajm jihatidan o‘zlashmalar leksikaning zaxira fondiga ko‘proq o‘rinlashmasin, tilning faol leksikasida oz yoki ko‘p qo‘llanishiga ko‘ra ham o‘zgarib turadi.

Tildagi sohaviy leksikani genetik tavsif qilish o‘ziga xos murakkab lingvistik jarayondir. Albatta, bunda lug‘at zaxirasini boyitgan o‘zlashmalar

manbalari tillarini statistik tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili leksikasi tarixan fors-tojik, arab, rus tillari bilan aloqada bo'lgani, o'zbek tili lug'at zaxirasining ushbu tillar so'zlari hisobiga boyishi hamda ularning genetik tahlili masalalari tilshunoslar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Ta'kidlash joizki, so'zlarni mavzuviiy guruhlariga ajratib tahlil qilish jarayoni muayyan xalq tilida ayrim sohalarga oid leksikaning boy ekani yoki boshqalarining zaxira jihatidan taqchilroq bo'lishini belgilashga omil bo'ladi. O'z va o'zlashgan qatlam leksikasini mavzuviiy guruhlariga bo'lish va ularni qiyosiy o'rganish o'z qatlamda qaysi sohalarga oid so'zlar saqlanib turgani, qanday jabhalarga doir leksemalar tarixan iste'moldan chiqib ketgani va ular o'rnini o'zlashgan so'zlar egallaganini aniqlashga yo'l ochadi [3;121] .

O'zbek tili tarixida arab-fors tillaridan kirib kelgan o'zlashmalarning ehtiyojdan tashqari behad ko'p qabul qilinishining salbiy oqibatlari A.Fitratning "Tilimiz" nomli maqolasida mulohazali bayon qilingan edi: *Hozirgi so'zlarimizdagi arabcha, forschalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir desangiz to'g'ridir. Biz ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Unlarni olurmiz, lekin o'zimizniki qilurmiz. Turkchallashtirurmiz. "Qoida"ning turkchasi yo'qdur. "Sarf"ning-da turkchasin topolmadik. Ikkisin daxi olurmiz. Lekin siz kabi "Havoyidi sarfiya" demasdan "Sarf qoidalari" dermiz. Chunki, ilmiy istilohlarning turkchasi yo'qdir. Kim dedi buni? "Shams"ning turkchasi "quyosh"dir. "Kavokib"ning turkchasi yulduzlardir. "Minvar"ning turkchasi olov, o'tdir. "Sahobi munavvar" – yorug' bulut; "handasa" – o'lchov xat, chiziq, "zoviya" – burchak, puchmoqdir. "Kavkabi sobita" – turg'uvchi yulduzdir. "Kavkabi zu-zanab" — quyruqli yulduzdir* [8;127].

O'zlashma qatlam orasida hajmning ortiqligi jihatidan arabcha va forscha so'zlardan keyingi o'rinni egallaydigan ruscha o'zlashmalarning salmog'i ham leksikada alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, rus tilining o'zbek tili terminologiyasida qo'shgan hissasi yuksak bo'lib, bu pazandachilik leksikasida ham bo'y ko'rsatgan.

O'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar doirasida oziq-ovqat nomlari ham etimologik jihatdan tarixiy yozma yodgorliklar misolida o'rganilgan. Masalan, L.Sinodorov [6;56] "Hibat ul-haqoyiq" dostonidagi *azuq, asal, ash, sharab, suv* yegulik va ichimlik nomlarini; M.Xolmuradova [9;55] "Qutadg'u bilig" dostonidagi *qo'niq* (masalliq), *žulanbin* (asaldan tayyorlangan ichimlik), *lewäš, etmäk* leksemalarini, B.Abdushukurov [2;192] esa "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi *chag'ir* (sharob), *meva, tarig'* (bug'doy), *ashliq* (oziq-ovqat, yegulik don), *bor* (vino), *yegu* (ovqat) leksemalarini tahlil qilib bergan. T.Tog'ayev [7;26] A.Navoiy asarlari tilida taomga doir 60 leksema mavjudligi, shundan 31 tasi turkiy, 17 tasi forsiy, 9 tasi arabiy, 1 tasi xitoycha va 2 tasi hindcha o'zlashma oziq-ovqat nomlari ekanligini asoslab bergan. Bu misollarda oziq-ovqat mahsulotlari nomlari tadqiqot perimetri sifatidagina olingan bo'lib, tadqiqotchi ularning geneologik tavsifini yoritib berishni maqsad qilmagan.

Tilshunos olim N.Mahmudov globallashuv jarayonida jamiyat hayotining keskin o'zgarishi tillarda ham o'z ta'sirini ko'rsatishi, davlatlarning "olish-berish" munosabatlaridan tillar ham chetda qolmasligini alohida ta'kidlab o'tadi [4;4]. Bugungi kunda ham iqtisodiy, ham sun'iy intellektda ustuvor bo'lgan jamiyatlar madaniyati va mafkurasi ta'siri ularga ma'lum ma'noda ehtiyoj sezayotgan jamiyatlarga o'zlashma so'zlar vositasi orqali ham singishda davom etmoqda.

O.Shukurov tilning tabiatini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ayrim omillar aynan o'zlashmalar atrofida sodir bo'lishi, qariyb bir asrlik davr oralig'ida faol leksikaga ruscha va rus tili orqali kirgan so'zlar hajmining besh ming so'z atrofida bo'lishi bir avlod zaxira lug'at boyligi uchun jiddiy ta'sir kuchiga ega ekanligini keltirib o'tgan [10;48].

Ma'lum bir tilga kirib kelgan yangi oziq-ovqat nomlarini genetik tavsif qilish glyuttonik diskursning muhim aspektlaridan biri bo'lib, bu gastronomik turizmda muhim ahamiyat kasb etadi. Olima G.Odilova o'zbek milliy taom nominatlarinining motivatsiyasi va etimologiyasini tadqiq qilish gastronomik turizmda asosiy vazifalardan biri ekanligini ta'kidlaydi [5;69].

O'zbek tili leksikasidan joy olgan o'z qatlamga oid oziq-ovqat nomlarining miqdori o'zlashma qatlam birliklariga qaraganda ko'pchilikni tashkil qiladi. O'zbek tili izohli lug'ati [11] ning 2020-yil nashridagi jami oziq-ovqat nomlari (579 so'zlik) statistik tahliliga tayanilsa, o'z qatlam oziq-ovqat nomlari 295 (51%), o'zlashma qatlam 284 (49 %) so'zni tashkil etadi.

O'z qatlam oziq-ovqat nomlari orasida, ayniqsa, meva va poliz ekini navlari nomlarining rang-barangligi kuzatiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida birgina o'z qatlam qovun navlarining 24 nomi (*amiri, begimsuydi, bo'rikalla, bekozdi, beshak, beshurug', gulobi, gurvak, gursketdi, jo'raqand, jiydayaproq, dahbedi, zamcha, ko'kcha, olapo'choq, oqurug', oqqovun, sapcha, cho'karqand, qariqiz, qizilurug', qorapuchoq, qoraqand, handalak*) berilgan bo'lib, shuning o'ziyoq o'zbek tilida o'z qatlam oziq-ovqat nomlarining benihoya boyligini ko'rsatadi.

O'zbek tili leksikasini boyitgan fors-tojikcha oziq-ovqat nomi o'zlashmalari "O'zbek tilining izohli lug'ati" [11] asosida tahlil qilinganda salmoqli (120 ta) miqdorni tashkil etishi va ular tarkibidagi *meva va sabzavot nomlari* boshqa oziq-ovqat o'zlashmalari leksik-semantik to'dalariga qaraganda miqdoran ko'p ekanligi aniqlandi. Ya'ni, fors-tojik tilidan o'zbek tiliga *anjir, anor, behi, bodom, gilos, do'landa, zardoli, nok, obaki (uzum navi), obinovvot (o'rik navi), olu, olhirot, pista, soyaki (uzum navi), xurmo, chillaki (uzum navi), chilon, shakarak (qovun navi), shaftoli* kabi meva nomlari o'zbek tili tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida o'zlashgan. Arabcha oziq-ovqat o'zlashmalari esa kamroq bo'lib, 33 tani tashkil etadi. Bular orasida *ovqat, taom, g'izo (eskirgan), qut-loyamut* birliklari umumiy mazmunda oziq-ovqat mahsulotlari nomi ma'nosini anglatadi.

Umuman olganda, O‘zbek tili izohli lug‘atining 2020-yil nashridagi jami oziq-ovqat nomlari orasida forsha (120 ta), arabcha (33 ta), ruscha (36 ta), fransuzcha (31 ta) o‘zlashmalar ko‘pchilikni; inglizcha (12 ta), italyancha (10 ta),

nemischa (8 ta), lotincha (8 ta), ispancha (5 ta), yunoncha (3 ta), ukraincha (3 ta),
gollandcha (3 ta), xitoycha (3 ta), polyakcha (2 ta), gruzincha (2 ta); rumincha,

vengercha, malayyacha, yaponcha va hindcha o‘zlashmalar esa faqat bittani tashkil etadi. Uni quyidagi diagramma orqali kuzatish mumkin:

O‘zbek tili izohli lug‘ati asosida

- o‘z qatlam oziq-ovqat nomlari – 295 (51 %)
- o‘zlashma qatlam oziq-ovqat nomlari – 284 (49 %)
- shundan:

■ forscha – 20,7 %

■ arabcha – 5,6 %

■ ruscha – 6,2 %

■ fransuzcha – 5,3 %

■ inglizcha – 2 %

■ italyancha – 1,7 %

■ nemischa – 1,3 %

■ lotincha – 1,3 %

■ ispancha – 0,8 %

■ yunoncha – 0,5 %

■ ukraincha – 0,5 %

■ gollandcha – 0,5 %

■ xitoycha – 0,5 %

■ polyakcha – 0,3 %

■ gruzincha – 0,3 %


■ rumincha – 0,1 %

■ vengercha – 0,1 %

■ malayyacha – 0,1 %

■ yaponcha – 0,1 %

■ hindcha – 1 %



1-rasm. Oziq-ovqat nomlari tarkibi (O‘TIL asosida).

O'zbek tilida ingliz tilidan kirib kelayotgan oziq-ovqat o'zlashmalarining ancha faollashayotgani, ayniqsa, tezpishar taom nomlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Tezpishar (fastfud) taom nomlarining o'zbek tiliga kirib kelishi va tobora jonli tilda faolligi bevosita g'arb madaniyatining ta'siri bilan bog'liq bo'lib, ularning aksariyati ingliz tiliga mansub o'zlashmalardir. Masalan, *hot-dog* – yumshoq bulochkaga issiq kolbasa va boshqa masalliqlar solib tayyorlanadigan tezpishar taom. Inglizcha *hot* – issiq va *dog* – it so'zlarining birikuvidan tashkil topgan nomdagi “dog” so'zi ingliz tilida “kolbasa” ma'nosida ham qo'llanadi. Chizburger – pishloqli gamburger (inglizcha *cheese* – pishloq) bo'lib, an'anaviy gamburgerdan farqli o'laroq, eritilgan pishloqni o'z ichiga oladi. Shu o'rinda aytish joizki, “O'zbek tilining izohli lug'atida *gamburger* o'zlashmasi keltirilgan bo'lib, *hamburger* – ham – dudlangan son go'shti + *burger* – ichiga biror narsa solib pishirilgan bulochka; toblab, qizartirib pishirilgan go'sht yoki qaynoq go'shtli qiyma hamda qayla, oshko'klar qo'shilgan buterbrod deya izoh berilgan [12;182]. Gamburger o'zlashmasi esa o'z atrofida bugungi kunda *chizburger*, *shefburger*, *bigburger*, *vopper*, *makchiken*, *bigtasty*, *mcdouble*, *macmaffin*, *baconator* kabi tezpishar taom nomlari ham o'zbek tiliga kirib keldi va “gamburger” assotsiatsiyasida birlashadi. *Naggets* – tovuq go'shtini qovurib tayyorlanadigan tezpishar taom bo'lib, bu nom inglizcha *nuggets* – oltin bo'lagi, bo'lak ma'nolarini anglatadi. *Strips* – tovuq go'shtini unga belab qovuriladigan tezpishar taom, ingliz tilida *strips* – chiziqlar degan ma'noni bildirib keladi. Strips tezpishar taomlar tayyorlovchi KFS restoranlar tarmog'i tomonidan 1995-yilda ixtiro qilingan [13].

Tezpishar taom nomlarining ortishi va jonli tilda qo'llanish ko'lamining kengayishi gastronomik maydonda bir necha omillar hisobiga sodir bo'lmoqda. Bular tezpishar taomlarning iqtisodiy tomonlama arzonligi, tez tayyor bo'lishi, tanlash imkoniyatining kengligi kabi omillar bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda, ayniqsa, insoniyat hayotida internet diskursining mavqeyi ortishi insonlarni mazali va to'yimli taom tayyorlashga ketadigan vaqtni tezpishar taomlar, snek (gazak)larga almashtirishdek salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Bu o'rinda jamiyat

hayotida tezpishar taom ishlab chiqarish biznesi bilan shug'ullanuvchi brendlarning ravnaq topishini ta'kidlab o'tish joizdir. Masalan, dunyodagi eng yirik shunday brendlardan biri *McDonald* korporatsiyasi dunyoning yuzdan ziyod davlatiga o'zining keng assortimentini olib kirgan restoranlar tarmog'idir. McDonald butun dunyoda o'zining *gamburger*, *sendvich*, *kartoshka fri* va *sutli kokteyllari* bilan tanilgan brendlardan biridir [14].

Shuningdek, o'zbek tilida hind-yevropa tillaridan kirib kelayotgan yangi o'zlashma ichimlik nomlarining soni ham ortib bormoqda. Jonli tilda faol qo'llanayotgan *moxito* – afrikacha *mojo* (*afsun* ma'nosini bildiradi) so'zidan kelib chiqqan, yalpiz, shakar va mevalar solib tayyorlanuvchi salqin ichimlik; *latte* (italyancha ko'pikli sut) – sutli ko'pik, sut va espresso qahvasiga asoslangan kofe ichimligi; *espresso* –(italyancha “siqilgan”) sutli qahvaning bir turi; *kapuchino* – (italyancha *kapuchin* so'zidan) maxsus bug' yordamida sutni ko'piklantirib tayyorlanadigan qahva; *amerikano* – afrikacha uslubdagi qahva, ma'lum miqdordagi issiq suv va espresso qahvasini birlashtirib tayyorlanadigan italyancha qahva kabi nomlar ham joy olayotgani o'zbek tilida o'zlashma ichimlik nomlari orasida boshqa tillar, xususan, italyan, ispan, fransuz, afrikacha (*moxito*) va baskcha (*kalimoch*) o'zlashmalari qayd etilayotganidan dalolat beradi.

O'zbek tilida ispan tilidan kirib kelayotgan oziq-ovqat o'zlashmalarining miqdori ortayotgani ham ispancha oziq-ovqat o'zlashmalari qatorini o'zbek tili leksikasida yuqori pog'onaga olib chiqmoqda. Xususan, “O'zbek tilining izohli lug'ati” [11] da ispancha *ananas*, *banan*, *vanil*, *kokos*, *mandarin* meva nomlari izohlangan. Endilikda bu qatordan ispancha *xabanero* – achchiq qalampir (nom Kubaning La-Habana shahri sharafiga qo'yilgan); *xalapeno* – o'rtacha hajmdagi chili qalampiri (nom Meksikaning Xalapa shahri nomidan olingan); *poblano* – yumshoq chili qalampiri (nom Meksikaning Puebla shahri nomidan kelib chiqqan); *gazpacho* – pomidor, qalampir, qotgan non asosida tayyorlanadigan vegetarian sovuq sho'rva; *pincho* – ispancha kechki taom oldidan mehmonlarga tortiq qilinuvchi yengil gazak, *pincho* so'zi ispan tilida nuqta, tayoqcha ma'nosini anglatadi. Shu o'rinda aytish joizki, bir tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashishida

vositachi tilning o‘rni ham beqiyos bo‘lib, o‘zbek tili leksikasida, asosan, bunday vazifani rus tili bajarib keldi. A.Axmedov vositachi til vazifasini ba‘zan ikki, uch yoki to‘rt til ham bajarishi mumkinligini ta’kidlaydi [1;80].

Rus tili orqali o‘zbek tiliga fransuzcha *baton, biskvit, bulyon, vanilin, vinegret, garnir, desert, plombir (muzqaymoq), palma, pyure, ragu, rafinad, rulet, selderey, sirop, eskimo (muzqaymoq), muskat, marmelad, marinad, margarin, manpasi, mayonez, limonad, likyor, karamel, krem, kotlet, konyak, kompot, konserva, jelatin, karp (baliq nomi)* kabi 31 ta oziq-ovqat o‘zlashmalari adabiy tilda o‘zlashgani “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” [11] asosida tahlil qilindi. Gastronomik sohadagi yangiliklar evaziga yuqoridagi fransuzcha o‘zlashma so‘zlar qatoridan taom nomlari – *sabayon, grenka, omlet*; pishiriq nomlari – *sharlotka, tartaletka, beze, kanape*; salat nomi – *olivye*; qo‘ziqorin nomi – *shampinion*; sous nomi – *beshamel*; kokteyl nomi – *frappe*; gazak nomi – *fri*; go‘sht mahsuloti nomlari – *frikadelka, sosiska*; krem nomi – *ganash*; sabzavot nomi – *patisson*; pishloq nomi – *parmizan* kabi o‘zlashmalar o‘zbek tili leksikasini boyitmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek tili leksikasidan joy olayotgan oziq-ovqat o‘zlashmalarining genetik manbalari so‘nggi yillarda miqdoran ko‘paydi va ular orasida ingliz tilidan o‘zlashayotgan oziq-ovqat nomlari ustunlik kasb etmoqda. Albatta, oziq-ovqat nomlarining genetik manbalarini tadqiq qilish bevosita va bilvosita o‘zlashayotgan nomlarni aniqlash, izohli lug‘atlarda etimologik ma’nosini ochib berish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмедов А. Тил луғат таркибининг янгиланиш жараёнлари лингвистик муаммо сифатида: монография. – Қарши: Интеллект. 2022.
2. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузӣй” лексикаси. – Тошкент: Академия, 2008.
3. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
4. Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – №6. – Б. 4.

5. Одилова Г. Ўзбек-инглиз миллий таом номинантлари қиёсий стилистикаси ва таржима муаммолари // Филология масалалари, 2019. – Vol. 29 No. 2. – Б. 69.
6. Синдоров Л.К. “Ҳибатул ҳақойиқ” лексикаси: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Жиззах: 2021.
7. Тоғаев Т. Алишер Навоий асарлари тилидаги таом номлари // Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2019. – №5. – Б. 26.
8. Fitrat A. Tanlangan asarlar: darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. V jildli. I jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – B. 127.
9. Холмурадова М.Ф. “Қутадғу билиг” лексикаси: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент: 2019.
10. Шукуров О.У. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври): филол. фан. доктори (DcS) ... дисс. автореф. – Қарши, 2023.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020.
12. О‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. II jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023. – B. 182.
13. <https://www.foodnewsweek.ru>
14. <https://unacademy.com>